


**«UMID ISHONCH LOYIHA»МЧЖ**



ЛИШЕНЗИЯ  
№АЛ-000523

Loyiha-smeta xujatlarini bajarishga pudrat

**SHARTNOMASI № 33/22**

"Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tuman Mevazor MFY  
hududiga mavjud qabristonni devor o'rash va taxoratxona  
qurish loyiha-smeta hujatlarini ishlab chiqish

**Buyurtmachi: Qashqadaryo viloyat hokimligi  
injiniring kompaniyasi**

Toshkent – 2022

**№ 33-LSX - sonli  
Loyiha-smeta xujjalari tuzish  
SHARTNOMASI**

2022 yil 11.02.2022

Toshkent shahri

Qashqadaryo viloyat hokimligi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi nomidan (keyingi o'rinnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi direktori A.Normo'minov bir tomonidan va ustav asosida faoloiyat ko'rsatayotgan "UMID ISHONCH LOYIHA" MCHJ nomidan (keyingi o'rinnlarda «Bajaruvchi» (Bajaruvchi nomi) deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi boshlig'i U.Samatov ikkinchi tomondan. Yakkabog' tuman Mevazor MFY hududiga mavjud qabristonni devor o'rash va taxoratxona qurish bo'yicha loyiha-smeta xujjalari tayyorlash shartnomasini tuzdilar.

**1. Shartnomaning mazmuni**

- 1.1. "Buyurtmachi" topshirig'iga asosan "Bajaruvchi" Yakkabog' tuman Mevazor MFY hududiga mavjud qabristonni devor o'rash va taxoratxona qurish bo'yicha loyiha-smeta xujjalari tayyorlashni o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. "Bajaruvchi" loyiha ishlarini "Korxona, bino va inshootlari qurilishiga loyiha-smeta xujjalaringning tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash" haqidagi SHNQ 1.03.01-03, "Qurilishda joriy shartnomaviy baholarni aniqlash tartibi" to'g'risidagi SHNQ 4.01.16-04 va loyhaga qo'yiladigan me'yoriy talablarni, qoida va qo'llanmalar asosida bajarilishini ta'minlaydi.
- 1.3. Bajariladigan ishlarga ilmiy, texnik, iqtisodiy va boshqa talablarni bajarish loyihalash topshiriqnomasida ko'rsatiladi.
- 1.4. Ishlarning bajarilish muddati tanlov bayonnomasi asosida belgilanadi va mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.5. "Bajaruvchi" maxsus loyiha ishlariga yordamchi bajaruvchi tashkilotlar bilan qo'shimcha shartnoma tuzishga haqlidir. Qo'shimcha shartnomalarni tuzish "Bajaruvchi"ning zimmasiga yuklailgan mazkur shartnomaning shartlarini bajarish javobgarligidan ozod etmaydi.
- 1.6. Xo'jalik shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

**2. Tomonlarning majburiyatları**

3. a) "Bajaruvchi"ning majburiyatları
4. 2.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" tomonidan berilgan loyihalash topshiriqnomasi va arxitektura-rejallashtirish topshiriqnomasi asosida loyiha ishlarini bajaradi;
5. 2.2. "Bajaruvchi" mazkur shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni "Buyurtmachi"ning ruxsatsiz uchinchi shaxsga berishga haqli emas.
6. 2.3. "Bajaruvchi" tomonidan tayyorlangan loyiha asosida hisoblangan smetadagi fizik ish hajmlar, material resurslar miqdori to'g'riligi (loyhaga mosligi) uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va oyma-oy bajarilgan ishlar to'g'risida "Buyurtmachi"ga kelishilgan jadval asosida hisobot topshirib turadi.
7. 2.4. VMning 2021 yil 20 maydag'i 321-sonli qarori 3-ilovasiga asosan "Qurilishda mualliflik va texnik nazorat to'g'risida Nizom" talabi asosida bajaruvchi tomonidan inshootda qurilish-montaj ishlarining loyiha yechimlariga muvofiqligi ustidan mualliflik nazoratini belgilangan tarilda olib boradi.
8. b) "Buyurtmachi"ning majburiyatları:
9. 2.5. "Bajaruvchi"ga ish hajmlarini bajarilishiga kerakli arxitektura-rejallashtirish topshiriqnomasini taqdim etadi;
10. 2.6. Bajarilgan loyiha ishlaridan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadda foydalanadi;
11. 2.7. "Bajaruvchi" tomonidan bajarilayoqgan loyiha ishlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini kuzatib boradi, mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib boradi;
12. 2.8. "Buyurtmachi" mablag' bilan ta'minlovchi tashkilotlarga bajarilgan loyiha ishlarining hajmi to'g'risida hisobotlami o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi.

**3. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati**

3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" tomonidan bajariladigan ishlar tanlov (tender) savdosi natijasida aniqlangan va tanlov (tender) komissiyasining 2022 yil 21 noyabrdagi 186980-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan qiymati barcha soliqlar, yig'ima va ajraumalarni (QQSni inobatga olgan holda) joriy narxlarda 1 950 000 (Bir million to'qqiz yuz ellik ming) so'mni tashkil etadi.

3.2. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ni mazkur shartnoma bo'yicha oldindan 15 foiz miqdorida bo'nak (avans) mablag'i bilan ta'minlaydi. 2022 yil tasdiqlangan manzilli dasturga asosan ajratilgan limit doirasida mablag' moliyalashtirib beriladi. Belgilangan mablag'lar bilan ta'minlash "Buyurtmachi"ni shu maqsadlar uchun Moliyalashiruvchi organlar tomonidan moliyalashtirilgandan keyin 5 bank ish kunida amalga oshiriladi. Bajarilgan ishlar uchun moliyalashtirishning qolgan qismi mazkur ishlar sisalli qilib bajarilib, mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib borgach dalolatnomalar asosida qabul qilingandan keyin bosqichmasbosqich amalga oshiriladi.

3.3. Mablag' bilan ta'minlovchi organ tomonidan inshoot uchun mablag' ajratilmagan holatda "Buyurtmachi" bajarilgan ish uchun bajaruvchiga to'lovlarni shartnomada belgilangan muddaida amalga oshirish majburiyatini olmaydi va iqtisodiy sud oldiga moliyalashtirilmagan mablag' uchun javobgar bo'lmaydi.

3.4. "Bajaruvchi" tomonidan ishlab chiqilgan qurilishga sarflanadigan moddiy texnika resurslari miqdori va qurilish muddati uzil-kesil hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi, ayrim hollar bundan mustasno, ya'ni:

3.4.1. Ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish qiymati va muddatini o'sishiga yoki shu parametrlardan biriga bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar (sors-major holati) sabab bo'lsa.

3.4.2. "Buyurtmachi" tomonidan ish hajmlariga o'zgartirish kiritilganda.

3.4.3. Ishlarni bajarish, xizmati ko'rsatish muddati bir yildan ortiq bo'lganda.

3.4.4. Loyiha-smeta bo'yicha hajmga o'zgartirish kiritilganda shartnoma qiymatiga o'zgartirish qo'shimcha kelishuv tuzish bilan yo'l qo'yiladi.

3.4.5. Asoslab berilgan holda, yuqorida qayd etilgan o'zgartirishlar "Buyurtmachi" va "Bajaruvchi" o'rasisida qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

#### 4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Bajarilgan ishlar ShNQ 1.03.01-03 va "Buyurtmachi" tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshiriq talablari asosida qabul qilinadi.

4.2. "Bajaruvchi" ishlarni bajarib bo'lgach, "Buyurtmachi"ga texnik topshiriqda ko'rsatilganidek topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bilan birlashtirilganida ilova qilib 2 ta nusxada loyiha-smeta hujjatlari komplektini taqdim etadi.

4.3. "Buyurtmachi" mazkur shartnomaning 4.2.-bandida ko'rsatilganidek, topshirish-qabul qilish dalolatnomasini va hisobot hujjatlarida bajarilgan ishlarni 5 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va "Bajaruvchi"ga imzolangan yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.

4.4. Bajarilgan ishlarini topshirish-qabul qilish davomida "Buyurtmachi"ning asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi jarayoni keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'llib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi haqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'naliishlarni oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chiqishlari kerak. "Buyurtmachi" ushbu holatda "Bajaruvchi"ga amalda bajarilgan loyiha ishining harajatlarini mazkur shartnomaning 3.3.2 va 3.3.4 bandlariga asosan amalga oshiradi.

#### 5. Tomonlarning javobgarligi

5.1. To'lov talabnomasini asossiz ravishda to'la yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisobkitoblarining boshqa shakklardagi ishlarga haq to'lashdan bosh tortganligi (G'aznachilik boshqarmasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaslik, chek bermaslik, akkreditiv qo'yemaslik va xokozo) uchun, "Buyurtmachi" to'lovdan bosh tortgan yoki rad etgan summasining 0,04 foiz hajmida "Bajaruvchi"ga penya to'laydi. Ammo bunda umumiylar summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan oshmasligi kerak.

5.2. "Buyurtmachi" olgan majburiyatini buzganligi uchun mazkur shartnomaning 4.3 moddasiga asosan u "Bajaruvchi"ga o'iazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning ijro etilmay qolgan

qismining 0,04 foiz hajmida penya to'laydi. Ammo bunda umumiylar summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak.

5.3. "Bajaruvchi" ishlarini bajarishda, xizmat ko'rsatishda olgan majburiyatlarini buzganligi uchun o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning ijro etilmay qolgan qismining 0,04 foiz hajmida penya to'laydi. Ammo bunda umumiylar summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib keumasligi kerak. Penya to'lash shartnomasi majburiyatini buzgan tomonni kechiktirib bajargan ishi yoki ko'rsatgan xizmati oqibatida keltirilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.4 "Bajaruvchi" shartnomasi talablariga ko'ra mualliflik nazoratini lozim darajada olib bormaganligi aniqlansa shartnomasi umumiylar qiyamatining 30 % miqdorida jarimia to'laydi.

5.5. "Bajaruvchi" tomonidan tayyorlangan loyiha-smetalarida nuqsonlar (tayyorlangan smeta hujjatlaridagi ish bajmlarini loyiha-smetalarida mos kelmasligi) aniqlansa "Bajaruvchi" kamchiliklarni o'z hisobidan to'g'rilanishini ta'minlaydi yoki taqdim ciilgan loyiha-smetalarida qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi, yetkazilgan zararlarni qoplab beradi.

5.6. Agar sodir bo'lishiga tomonlarning hech biri javob bermaydigan (fors-major) hollar yuzaga kelsa, tomonlar o'z harakatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik me'yorlariga suyanadilar.

5.7. Agar bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar kerakli sifatga, texnik shartlarga va majburiyatlarga mos kelmasa, "Buyurtmachi" bajarilgan ishlarga haq to'lashdan bosh tortishga haqli. "Bajaruvchi" dan sifatga javob bermaydigan ish qiyamatining 0,4 foizi penya undirishga haqli, biroq bunda penyaning umumiylar summasi shartnomasi qiyamatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Agar bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan so'mmani qaytarishni talab qilishga, hamda penya talab qilishga haqli.

Penya hisobi to'lov talabnomasi bank muassasasiga, loyiha nujjatlarining sifati, assortimenti va sifati lozim darajada bo'lmasan bajarilgan ishlar aniqlangan kundan boshlab bu haqida dalolatnomasi tuzilganidan keyin 10 kundan kechikmay taqdim etilishi lozim. Penya hisobi to'lov talabnomasi belgilangan 10 kunlik muddatni buzgan tarzda taqdim etilsa va "Bajaruvchi" penyaning ixtiyoriy to'lashdan bosh tortsa penyaning undirish belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi.

5.8. ShNQ 1.03.01-03ning 1.13 bandiga asosan inshootning loyiha-smetalarida qabul qilingan texnik iqtisodiy yechimlar, fizik ish hajmlarining to'g'riligi va qurilish materiallari uchun qo'llaniladigan birlik narxlarining to'g'riligi va haqqoniyligi uchun loyiha tashkiloti to'liq javob berishlari, agarda qurilish ishlariga tender savdolari o'tkazilgandan so'ng qurilish jarayonida loyiha hujjatlarida aniqlangan xato va kamchiliklar qiymati aniqlansa, ushbu kamchiliklarni to'g'rilash uchun keladigan barcha xarajatlar loyiha tashkilotlari tomonidan to'liq qoplaniladi.

5.9. Shartnomani ijro etmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar shartnomada o'zgacha ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuning 24-35-moddalariga asosan javobgarlik choralar qo'llaniladi.

5.10. Tomonlar o'nasida nizolar va kelishmovchiliklar yuz bergan holatlarda, umumiylar da'vo muddati (3 yil) hisobga olingan holda Qarshi tumانlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilinadi.

## 6. Bartaraft etib bo'lmaydigan kuch holati (fors-major)

6.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy harakatlar, yuqumli kasalliklar tarqalishi va boshqa bartaraft etib bo'lmaydigan kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, hamda bu holat mazkur shartnomasi ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnomasi bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolgan qismi uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

Mazkur shartnomasi bo'yicha majburiyatlarining ijro muddati bartaraft etib bo'lmaydigan vaziyat, keltirib chiqargan oqibat hukm surgan vaqtga mos ravishda muddati uzaytiriladi.

6.2. Agar bartaraft etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqiga cho'ziladigan bo'lsa, "Bajaruvchi" va "Buyurtmachi" ishni davom ettirish yoki noma'lum vaqiga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muhokama qiladilar.

Agar tomonlar 2 oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## **7. Qo'shimcha shartlar**

7.1. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

## **8. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari**

8.1. Mazkur shartnomani tomonlar imzolanganidan keyin qonuniy kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarib bo'lguncha haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yil.

8.3. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

## **9. Nizolarni hal etish tartibi va huquqiy ekspertizasi**

9.1. Shartnomaning mazmuni uni tuzishga tayyorlash jarayonida yuridik xizmat sub'ektlari yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonunchilikka muvofiq kelishi tekshirilgan bo'lishi darkor. Ularning imzosiz yoki xulosasiz shartnoma tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

9.2. Shartnomanini tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek, keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga kelgan bahslar qonunchilikda belgilangan tartibda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan yoki, tomonlarning kelishuviga binoan hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

## **10. Tomonlarning rekvizitlari**

### **"Buyurtmachi"**

#### **Viloyat hokimligi Injiniring kompaniyasi**

Manzili: Qarshi sh, O'zbekiston ovozi gazetası  
3-uy  
Tel: 227-16-56. 227-14-60, faks 227-19-82.  
sh/x\*t 301821860104017065200110077  
INN 204 796 710 OKONX 69000  
O'z.R Moliya Vazirligi G'aznachiligi  
H/R: 23402000300100001010  
Toshkent shahri Markaziy banki XKM  
MFO:00014 STIR: 201 122 919

Direktor



A. Normonov

### **"Bajaruvuchi"**

#### **"UMID ISHONCH LOYIHA" MChJ**

Manzili: Toshkent shahar, M.Ulug'bek tumani  
Qorasuv-4 mavzesi 12-uy  
Tel: +998-91-962-33-11, +998-99-865-28-39  
X/R: 20 208 000 405 141 045 001  
Bank: Ipoteka bank Toshkent shahar Amaliyot  
bulimi  
MFO: 00419 INN: 306 848 141

Direktor:

U.Samatov

**Huquqshunos xulosasi:** Ushbu shartnoma O'zR FK va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunning normalari va tomonlar javobgarligi, nizolarni hal etish amaldagi qonun xijjatlari talablariga javob beradi.

**Huquqshunos:**

D.Qulnazarov

(Imzo)

## ISHLARNING KALENDAR REJASI

Qashqadaryo viloyat hokimiligi injiniring kompaniyasi topshirig'i bilan, Yakkabog' tuman Mevazor MFY hududiga mavjud qabristonni devor o'rash va taxoratxona qurish bo'yicha loyiha-smeta xujjalariini tayyorlash.

2022 yil

33-LSX-sonli shartnomaga

1-ilova

№	Shartnomaga bo'yicha bajariladigan ishlarning va asosiy bosqichlarning ro'yxati	Bajarish muddati		Bosqichlarning hisob qiymati yig'indisi QQS bilan birga
		Boshlanishi	Yakunlanishi	
1	Yakkabog' tuman Mevazor MFY hududiga mavjud qabristonni devor o'rash va taxoratxona qurish	2022 yil	2022 yil	1 950 000
	<b>Jami:</b>			<b>1 950 000</b>

Bir million to'qqiz yuz ellik ming  
(So'mma so'z bilen)

“BUYURTMACHI” nomidan

Direktor:



A. Normo'minov

“BAJARUVCHI” nomidan

U.Samatov



2022 yil \_\_\_\_\_ dagi  
 33-LSX-sonli shartnomaga 2-ilova  
 Yakkabog' tuman Mevazor MFY hududiga  
 mavjud qabristonni devor o'rash va taxoratxona  
 qurish bo'yicha loyiha-smeta xujjalalarini  
 tayyorlash

### S M E T A S I

Buyurtmachi: Qashqadaryo viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi  
 Bajaruvchi: "UMID ISHONCH LOYIHA" ma'suliyati cheklangan jamiyati

Nr	Tashkilot, qurilish inshoatlari yoki ish turlarining taysifi	Qurilish uchun loyiha (qidiruv) ishlari narxlari to'plamining qismi № bobi, jadvali bandi	Qiymatini hisoblash (axs)=c	Qiymati QQS bilan birga
1	2	3	4	5
1	Yakkabog' tuman Mevazor MFY hududiga mavjud qabristonni devor o'rash va taxoratxona qurish bo'yicha loyiha-smeta xujjalalarini tayyorlash	O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirining 2020 yil 19 avgustdagи 876-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Loyiha-ladqiqot ishlaringning qiymatini aniqlash taribi lo'g'risida»gi Nizom		1 950 000
<b>JAMI</b>				<b>1 950 000</b>

Bir million to'qqiz yuz ellik ming  
(So'mma so'z bilan)